Mehnat fanidan amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish uslublari. Mehnat ta'limi protsessini tadqiq qilish har bir yangi operatsiyani qisqa muddatdan (5-15 minutli) mashqlardan boshlash maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatmoqda. Bu mashqlarni shartli ravishda amaliy mashqlar deyish mumkin. Amaliy ishlarni bajarish jarayonida o'quvchilar har xil buyumlar tayyorlar ekan, mehnat usullari va harakatlarini bajarish bo'yicha mashq qilishni davom ettiradilar. Bunday mashqlarni tayyorgarlik mashqlari deyiladi. Ish o'rnini tashkil qilishga, asbobni sozlash, dastlabki mehnat usullari va harakatlarini o'zlashtirishga ko'nlikma va malakalarini takomillashtirishga doir mashqlar mazmuniga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Boshlang'ish mehnat usullari va harakatlarini o'zlashtirishga doir mashqlar o'z strukturasiiga ko'ra eng murakkab bo'lib, u umumiy ko'rinishda zagatovkani mahkamlash, ish holatiga kirish asbobini ushlab, harakat strukturasi, uning rasmini egallash, asboblarga qo'yiladigan kuchni amalda aniqlash harakat koordinatasining elementlaridan iborat bo'ladi.

Mashqlarga ta'lim metodi sifatida qator quyidagi didaktik talablar qo'yiladi. 1. Mashqlar o'quvchilarning ongli foliyatiga asoslanadi. Ko'nikma va malakalarini hosil qilishda eng katta ro'l o'ynaydi. Mehnat ta'limi tajribasi "Muskullarini o'rgatish"ga ongdan tashqari urinish (MMI sis mavzusi) muvafaqiyatga olib bormasligini ko'rsatadi. Fiziologiya va psixologiyada malakalarini hosil bo'lishi va mustahkamlanishi qonuniyatlari ochib berildi.

Ko'nikma malaka vefosita shakllanishidan oldin shu haqida o'quvchi ongida tasavvur hosil bo'ladi. O'quvchilarning o'rganilayotgan harakat haqidagi tasavvuri qanchalik to'g'ri, aniq bo'lsa, ular o'ni shunchalik tez va aniqroq egallab oladilar. Bundan o'qituvchi mashqlardan oldin bajaradigan ishining qanchalik muhimligi ma'lum bo'ladi. Bu ish jarayonida o'quvchilar o'rganilayotgan operatsiyaning ahamiyatini bilib oladilar, mehnat usullarini bajarish qoydolari asoslanadi, harakatning obrazi yaratiladi.

Mashqlar va ularning elementlari qiyinligi ortib boradigan tartibda joylashtiriladi. Har xil mehnat operatsiyalarida bir xil elementlar usullar, 8 harakatlarning o'zi ko'p uchraydi ammo operatsiyalarning o'zi qiyinligi bo'yicha farq qiladi, masalan; metallarni zubila bilan qirqish operatsiyasi bunday bajariladi: O'quvchi chap qo'lida zubilani o'ng qo'lida bolg'ani ushlab, zubilaga uning o'tkir uchi diskiga qisilgan zagatovkadan yubqa metall qatlamini kuchirishi uchun uradi. Bunda bolg'a bilan ishlash qator qiyinchiliklarini keltirib chiqaradi: O'quvchi oldin bolg'a harakatini, urish aniqligini, urish kuchini to'g'ri va toza kesishni o'rganib olishi kerak.

U shu elementlarining hammasini o'zlashtirsagina metall qirqish operatsiyasini bilib oladi. Shu sababli bu texnologik operatsiyadan oldin boshqa qator soddaroq operatsiyalarini bajarish kerak. Masalan, metalni to'g'irlashga oid mashqlar bolg'a bilan ishlash strukturasi va urish kuchini o'rganishka imkon beradi, porchinlash mashqlari o'quvchilarga zarur behato urish malakasini rivojlantiradi, bu operatsiyalar bilan birgalikda qirqish malakasini egallash uchun asos bo'ladi. Ta'limda operatsiyalarning olmashtirishini ularning texnologik analizidan ko'ra ko'proq mo'ayyan malakalar hosil qilishning psixologik va fiziologik shartlarini

hisobga olishga asoslanadi.

Ko'pincha zubila bilan kesish protsessida tabiiy hol bo'lgan chap qo'lni bolg'a bilan urib olib jarohatlashdan (urishning aniqligi va kuchini bilib olguncha) qo'rquvni bartaraf qilish o'quvchilar uchun ancha qiyinchilik bo'ladi, ammo bu salbiy faktor to'g'irlash va parchinlash protsessida oldindan xatosiz urishni o'rganish natijasida yo'qoladi.

Mashqlar paytida o'quvchilar o'z mehnat harakatlarini kontrol' qilishlari kerak. Bunda dastlabki tayyorgarlikning to'g'riligiga katta ahamiyat beriladi. Ma'lumki, beqaror ko'nikmalar yoki noto'g'ri ish usullari keyingi ta'lim uchun jiddiy to'siq bo'ladi. Shu sababli o'qituvchi o'quvchilarning eng boshidan mehnat usullari, harakatlari, operatsiyalarini to'g'ri bajarishlarini kuzatib barishi kerak. Agar o'quvchilar o'zlarini kontrol' qilishiga jalb etilsa, ya'ni ular o'z-uzuni kontrol' qilishini amalga oshirsa, bu talab samaraliroq bajariladi. Shu sababli, o'qituvchi mehnat usullarini, harakatlarini bajarish qoidalarini tushuntirar ekan, o'quvchilarga shunday mezonlarni ko'rsatadiki, o'quvchilar shu mezonlar asosida o'zleri bajaradigan harakatlarning to'g'riligi haqida hukm chiqarishlari mumkin. Shuningdek, o'z-uzuni kontrol' qilish o'quvchilarni asosiy o'quv vazifasi — mehnat malakalarini egallashdan chalg'imasligi kerak. Egovlashdek keng tarqalgan slesarlik operatsiyani o'rganishda o'z-uzuni kontrol' qilish imkoniyatlarini kurib o'tamiz. Ma'lumki, egovni muvozanatda tutishi-ko'rsatilgan operatsiyaning eng qiyin usullaridan biridir. Bu usulni o'rganish qiyinligining sababi ko'proq egovning tebranishi ish harakati vaqtida uning gorizontalk tekislikdan og'ishini ko'zi bilan izohlanadi. Shu sababli, o'quvchilar o'z harakatlarini o'zleri to'g'irlab turishiga asos bo'ladigan boshqa qandaydir belgi kerak. Buning uchun ustaxonalaridagi mashg'ulotlar sharoitida kuydagi didaktik usuldan foydalanish mumkin. O'quvchilarga zarb usuli bilan bajarish va o'z harakatlarini ishlov berilayotgan butun yuza egov tishlarining bir tekis izlari turi tavsiya etiladi.

Ana shu maqsadda keyingi yillarda ko'proq ta'limning texnik vositalaritrenajyorlar o'quvchilarga o'z mehnat harakatlarida berilgan kuch. Ma'lumki, ishchi ishlab chiqarish tekisligini bajarishda o'zi uchun zarur muayyan spravochnik materiallarini topa olishi kerak. Agar masalan, stanokchi haqida gap borayotgan bo'lsa, bu topshiriq konkret ish shartlariga ko'ra qirqish rejimi elementlari (qirqish chuqirligi, qirqish tezligin uzatish) bo'lishi mumkin, elektr montajchi uchun esa spravochnikdan simlarning markalarini, apparatlar va hakoazolarni topishga to'g'ri keladi.

Ishchining malakasi qancha yuqori bo'lsa, u spravochnik adabiyotdan shunchalik keng foydalaniladi. Shu bilan birga mehnat ta'limi protsessida spravochniklardan foydalanish yagona maqsad emas, balki o'quvchilarni sanoat ishlab chiqarishi asoslari bilan tanishtirish usullaridan biri bo'lishi kerak. Demak, spravochnik adabiyotdan foydalanishga o'quvchilarning mehnat faoliyati mazmuni talab qilgandagina murojat qilinadi. Masalan, rez'ba ochishda zagatovkalarining tegishli o'lchamlari jadvallardan tanlanadi, eskizlar tuzishda GOST lardan foydalaniladi, elektr sxemalarni ishlashda elektr montaji ishlariga oid spravochniklardan foydalanadi va hokazo.

Laboratoriya tajribalarini o'quvchilar ustaxonalaridagi mashg'ulotlarda ishlov beriladigan materiallarning xossalari bilan, asboblarning tuzilishi, jihozlar va 10 boshqalar bilan tanishish maqsadida bajaradilar. Bu tajribalar laboratoriya ishlari o'rtasida tashkil qilinadi. Laboratoriya ishlari qiyinligi o'quvchilarning yoshiga va mavjud bo'lib moddiy bazaga qarab har xil bo'lishi mumkin.

Masalan, yog'ochni homlik va qattqlikni sinash o'quvchilarning qo'lidan keladi. Ular hozirgi zamon priborlari va moslamalardan foydalanganligi ma'qul. Bunday ishlarni bajarishda eng muxim o'quvchilarning fan asoslari bo'yicha bilimlardan foydalanishdir. Agar laboratoriya ishlari unumli mehnat bilan bog'liq bo'lsa o'quvchilarning ularga qiziqishi ortadi.

Masalan o'quvchilarga mazkur metalning qattqligini shunchaki topish emas balki yasaladigan detal' uchun tegishli qattqlikdagi zagatovka tanlashni ham topshirish maqsadga muvofiqdir.

Tokarlik stanogini o'rganishga kirishishda o'quvchilar o'tkirlash burchaklari normativlarga mos kelishni aniqlash uchun uglomer yordamida keskich geometriyasini tekshirishni laboratoriya ishi sifatida bajarishlari mumkin.

Odatda laboratoriya ishlari praktikum shaklida tashkil qilinadi, ammo ularni frontal yo'l bilan ham o'tkazish mumkin. Praktikum shaklidagi laboratoriya ishlarida o'quvchilar zvenolarga bo'linadi zvenodagi o'quvchilar soni tegishli jihozlar va laboratoriya tajribalarini o'quvchilarning ijtimoiy foydali mehnati bilan didaktik bog'lash imkoniyatlariga qarab aniqlanadi

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Txorjevskiy Mehnat ta'lim metodikasi Toshkent "o'qituvchi" 1987 y
2. P.Senemikin Maktab ustaxonalarida asboblari tayyorlash Toshkent "o'qituvchi" 1990y
3. N.I. Makienko Slesarlikdan amaliy ishlar Toshkent "o'qituvchi" 1992y
4. Baltabaev Kasb tanlashga yo'nalish Toshkent 2000y
5. S. Mahkamov Uquv ustaxonalarida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlar Toshkent "o'qituvchi" 1991y
6. K.Davlatov Mehnat va kasb ta'limi, tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasi Toshkent "o'qituvchi" 1992y
7. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari "2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umumiy dasturi: asosiy tamoyillar va privord islohotlar" Nukus 2005y
8. I.Karimov, B.U. Olimov Mehnat ta'limi darslarida fanlararo bog'lanishlar. Uslubiy qo'llanma Toshkent 2008y

## Тарих дарсини умумий ўрта таълим мактабларида технологик ташкил этишнинг афзалликлари

Джумаева Шоира Саттаровна

Олтинсой тумани 25-сон умумий ўрта таълим мактаби тарих фани ўқитувчиси

Ўзбекистан Республикасининг "Кадрлар тайёрлаш миллий дастури«да таълим муассасаларининг моддий-техника ва ахборот базасини мустаҳкамлашни давом эттириш, ўқув-тарбия жараёнини сифатли ўқув адабиётлари ва илғор педагогик технологиялар билан таъминлашга алоҳида эътибор берилган. Тарих таълими мақсадлари, унинг мазмуни, ўқитиш ва таълим бериш методлари, назорат ва натижаларни баҳолашни ўзаро алоқада ва бир-бири билан боғлиқликда лойихалаш-кўпинча анъанавий ўқув жараёнида етишмайдиган жиҳатлардир.

Кўп ҳолларда таълим, ахборотни эслаб қолишга йўналтирилган, ўқувчини бўлажак фаолияти эса муайян ишларни бажариш қабул қилиш билан боғлиқ бўлади. Аслини олганда, педагогик технология — бу ўқитишга янгича, ўзига хос (инновацион) ёндашувдир. У педагогикадаги ижтимоий-муҳандислик тафаккурининг ифодаланиши, технократик илмий онгнинг педагогика соҳасига кўчирилган тасвири, таълим жараёнининг муайян стандартлашуви ҳисобланади. Технология тушунчаси юнунча «махррат», «санъат», «тушунча», «ўрганиш» демақдир.

Технология сўзи замирида жараёнларни амалга ошириш усуллари ва воситалари ҳақида билимлар йиғиндиси, шунингдек объектда содир бўладиган сифат ўзгаришлари тушунилади. Педагогик технология деганда, технологик (ишлаб чиқаришдаги) ёндашувларга айнан ухшаш бўлган таълимда қўйилган мақсадларга эришиш кафолатланган (якуний натижани олиш) таълим жараёни тушунилади. Бундай таълим жараёни технологиялаштирилган ҳисобланади.

Технологиялаштирилган таълим ўқитувчи шахсига боғлиқ бўлмаган, фақат ўқувчи таълим жараёнидир. Ўқувчи таълим жараёни марказида туради. Бунда дарсни ким (тажрибали ўқитувчиси ёки ёш ўқитувчиси) олиб боришидан қатъи назар кўзланган якуний натижа (мақсадга қўриқ)га эришиш кафолат ланиши лозим.

Таълимда ўқитувчи фақат ижрочи вазифасини бажаради. " Биз нафақат сиёсий жабҳани, балки иқтисодий ва маънавий ҳаётни ҳам, маънавий-ахлоқий соҳадан ислоҳ қилишимиз зарур. Бу ғоят кенг куламадаги ислохотлар бўлиб, биз уларни комплекс тарзда ҳал қилиш орқалигина ўз мақсадларимизга эриша оламиз«- деб таъкидлаган эди Ўзбекистоннинг биринчи Президенти И.Каримов. Янгича таълим тизимини қуриш, жараёнларга янги таълим технологияларини киритиш, ўқувчи-ёшларни, талабаларни мустақил ижодий ишлашга, эркин фикрлашга ўргатиш, педагогик жараёнларда ноанъанавий, қизиқарли, фаол, инновацион усулларни қўллашни ҳозирги кунимиз тақозо қилмоқда.

Ўқитиш жараёнларида ноанъанавий таълим усулларида: «Конфереция дарси», «Семинар дарси», «Аралаш дарси», «Кўргазмали қуроллар ёрдамида дарс утиш», «Тарихий адабиётларни ўрганиш ва таҳлил қилиш», "Эврика«( уйлаб топ): талимни Қизиқарли, фаол усулларида: «Кичик ва катта гуруҳларда ишлаш», «Роли уйинлар», «Кроссвордлар ечиш», «Заковот саволлари», «Тест синов» топшириқлари, «Турли тарқатма материаллардан фойдаланиб дарс ўтиш», талимнинг инновацион (янги) усуллари: «Модификациялашган таълим», «Импровизация», «Ақлий хужум», «Дебат», «Танқидий тафаккурни ривожлантирувчи усул», «Кластер усули», «Муаммоли вазият», «Муайян ҳолат, вазиятни ўрганиш, таҳлил қилиш», «Хар Ким ҳар кимга ўргатади», «Мултимедиа», ва бошқаларни қўллаш муҳимдир.

Таълимнинг инновацион усули булган «Модификациялашган таълим»- шакли ўзгартирилган маъруза бўлиб, талабалар ёки ўқувчилар билан мулоқот тарзида олиб борилади. Афзаллиги шундаки,

талабалар ёки ўқувчлар ўз устида мустақил, дарс жараёнида фаол иштирок этадилар.

Ўқувчилар янги мавзунини ўқитувчи билан биргаликда таҳлил қиладилар. «Импровизация» - тайёргарликсиз баён этиш усули булиб, ўқитувчи ўқувчиларга савол ёки топшириқ беради ва дарҳол унинг жавобини тайёргарликсиз тушунтириб беришини суради. Бу усулнинг афзаллиги шундаки, талабалар ёки ўқувчилар ўз шахсий фикрларига, дунёқарашга эга бўладилар, уларнинг оғзаки нутқи ривожланади, ҳар бир савол-топшириқларни хотирада тез таҳлил қила олиш кўникмалари шаклланади. "Ақлий хужум«усули.

Ўқитувчи ўқувчиларга бирон-бир савол ёки топшириқ беради, улар эса Ушбу савол ёки топшириқда бирин-кетин, кема-кет ўз фикр мулоҳазаларини билдирадилар. Афзаллиги — янги мавзу ёки дарсни бошламасдан аввал ушбу усул қўлланилса, ўқувчилар дарсга, янги мавзуга тайёргарлиги, диққати фаол жалб қилинади, ҳар ким ўз фикрини эркин намоён қила олиш имкониятига эга бўлади. «Муаммоли вазият» усули. Бу усулни ўқитиш жараёнида қўллашда ўқувчиларга ҳаётий воқеа, ҳодисалардаги муаммоли ҳолатлардан мисоллар келтиради. Бунда вазият юзасидан талабалар ёки ўқувчилар уз фикр-мулоҳазаларини билдирадилар, муаммони атрофлича ҳал қиладилар.

Усулни афзаллиги шундаки, талабалар ёки ўқувчилар муаммо устида бош котирадилар, ўз фикрларини билдирадилар, ҳаётдан ижобий сабоқ оладилар. Шунингдек бу усулни қўллаш орқали таълимнинг тарбиявий, ҳдёт билан боғлиқлик принципларининг ўзвий (боғлиқ) лигига эришилади. «Муайян ҳолат ва вазиятни ўрганиш, таҳлил қилиш» усули. Бу усул юқоридаги усулга мазмунан ухшаш бўлиб, уни қўллашда ҳаётий воқеа, ҳодиса, вазият юзасидан мисол келтирилади.

Ўқувчилар ушбу ҳаётий воқеа, ҳолат ва вазият юзасидан ўз фикрларини билдирадилар, таҳлил қиладилар.

Ўқитувчи эса, хулосалаб, умлаштиради. Бу усулнинг афзаллиги- ўқувчилар ҳаётий воқеа, ҳолатларга ўз муносабатларини билдирадилар, бу вазиятларни эркин, мустақил, ижодий ёндашган ҳолда таҳлил қиладилар. Таъкидлаш жоизки, юқорида зикр қилинган янги инновацион фаол усулларни ўқитиш жараёнида қўллашда қуйидаги талаб ва тавсияларга риоя қилиш лозим: -таълимнинг ноанъанавий, қизиқарли, фаол, инновацион(янги) усуллари ҳақида маълумотга эга бўлиш, уларнинг мазмун-моҳиятини тўлиқ тушуниб етиш ва ўқитиш жараёнида қўллаш; — ўқитиш жараёнида фаол усулларни қўлланиши самарали услубиётини танлаш олиш; -инновацион, фаол усулларни ҳар бир фан хусусиятларидан келиб чиқиб қўллаш; -ўқитиш жараёнида фаол инновацион усуллардан фойдаланишда таълим-тарбия принципларининг ўзвий (боғлиқ)лигига эришиш; -ўқитиш жараёнида талабаларнинг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олиш (билимлилик даражаси, қизиқиши, индивидуал ёндашиш ва бошқалар); — ўқувчиларни ўқитиш жараёнида фаолликка чорлаш усуларини тўғри танлаш ола билиш, уз устида мустақил, ижодий ишлашга, эркин фикр юритишга ўргатиш муҳим аҳамият касб этади.

### Фойдаланилган адабиётлар

1. Ислом Каримов Тарихий хотирасиз келажак йуқ.: Тошкент. «Шарқ», 1998.
2. Ислом Каримов Ўзбекистон буюк келажак сари.: Тошкент. «Ўзбекистон», 1998.
3. Бабанский Ю.К. «Ҳозирги замон умумий таълим мактабларида ўқитиш методлари»: Тошкент. «Ўзбекистон», 1990.
4. Саъдиев А. Мактабда тарих ўқитиш методикаси.: Тошкент. «Ўқитувчи», 1988
5. Саъдиев А. Ўзбекистон халқлари тарихини ўқитиш.: Тошкент. «Ўқитувчи», 1993
6. Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандарти ва ўқув дастури Тошкент. «Шарқ», 1999 и. 2-сон
7. Т.Тошпулатов, Я.Раффоров Тарих ўқитиш методикаси.: Тошкент. «Университет», 2002.
8. Н.И.Аппарович, Д.И.Полторак Кабинет истории и обществоведения в средней школе.: Москва «Просвещение», 1982.

## Тарих фанини ўқитишда педагогик технологиялардан фойдаланишнинг усул ва воситалари

**Аманов Искандар Сафарович**  
Қумқўрғон тумани 48-сон умумий ўрта таълим мактаби тарихи фани ўқитувчиси,

XX аср охирига келиб илмий техник тараққиёт нафақат инсоният ҳаётини фақатгина балким кўплаб ишлаб чиқариш соҳаларини технологиялаштириш билан бирга, маданият соҳасига, гуманитар билимлар соҳаларига ҳам шиддат билан кириб келди. Ҳозирги кунда биз нафақат ахборот, тиббиёт технологиялари ҳақида гапиримиз, шу жумладан таълим соҳасида ҳам. «Технология» тушунчаси техник тараққиёт сабабли юзага келди ва луғатлар талқини бўйича (techne санъат, ҳунар, фан; logos — тушунча, таълимот) материалларга ишлов бериш усуллари ва воситалари ҳақидаги билимлар тўплами демакдир.

Технология шу билан бирга жараёни билиш санъатини ҳам ўз ичига олади. Технологик жараён ҳар доим зарур воситалар ва шароитлардан фойдаланиш билан операциялар маълум кетма-кетлигини кўзда тутди. Технология процессуал мазмунда «қандай қилиб, нимадан ва қайси воситалар билан бажариш керак?» деган саволга жавоб беради.

«Педагогик технология» тушунчаси ўқитиш назариясидан кейинги пайтларда янада кенгроқ тарқалди. XX асрнинг 20-йилларида «педагогик технология» термини биринчи бор педагогика бўйича асарларда тилга олинган. Шу вақтнинг ўзида яна бир бошқа — «педагогик техника» термини ҳам тарқалди. У педагогик энциклопедияда 30-йилларда ўқув машғулотларини аниқ ва самарали ташкил этишга қаратилган услублар ва воситалар сифатида фойдаланган. Педагогик технологияларга ўқув ва лаборатория ускуналари билан ишлаш, кўргазмали қўлланмалардан фойдаланиш маҳоратлари ҳам киритилган.

Ўтган асрнинг 40-50-йилларида, ўқитиш — ўқув жараёнларига техник воситаларни татбиқ этиш бошланганида, «таълим технологияси» термини пайдо бўлди, у кейинги йиллар давомида «педагогик технологияга» айлантирилди. 60-йиллар ўрталарида бу тушунчанинг мазмуни чет элларда педагогик нашрларда ва халқаро конференцияларда кенг муҳокама этилди, натижада ушбу соҳада турли мамлакатларда (АҚШ, Англия, Япония, Франция, Италия, Венгрия) уни талқин қилиш даражасига қараб икки йўналиши белгиланди. Биринчи йўналиш тарафдорлари техник воситалар ва дастурлаштирилган ўқитиш воситаларини қўллаш зарурлигини таъкидладилар (technology in education).

Иккинчи йўналиш тарафдорлари эса ўқув жараёнини ташкил этиш самарадорлигини ошириш ва педагогик ғояларнинг техниканинг кескин ривожланишидан ортда қолишини йўқотиш муҳим деб ҳисобладилар. Шундай қилиб 1-йўналиш «ўқитишда техник воситалар» сифатида белгиланди, биз биров кейинроқ юзага келган 2-йўналиш «ўқитиш технологияси» ёки «ўқув жараёни технологияси» сифатида белгиланди. 70-йилларнинг бошларида турли хилдаги ўқув ускуналарини ва ўқув воситаларини модернизациялаштириш зарурлиги англаб етилди. Буларсиз ўқитишнинг сифатлилиги ва самарадорлигига эришиб бўлмас эди. 60-йиллар ўрталари ва 70-йилларнинг бошларида АҚШ, Англия, Япония, Италия каби юксак ривожланган давлатларда педагогик технологиялар масалалари билан шуғулланувчи журналлар нашр этилар эди, кейинчалик бу муаммо билан ихтисослаштирилган ташкилотлар ва марказлар шуғуллана бошлади. Педагогик технология деб одатда мақсади таълим жараёнининг самарадорлигини ошириш, таълимда кўзланган натижаларга эришиш бўлган чет эл педагогикасининг йўналишига айтилади (М. Кларин, 1989) миллий педагогик адабиётларда бундай ҳолларда ўқитишнинг дидактикаси ёки методикаси ҳақида гапирадилар, бироқ «технология» термини ҳозирги кунда жуда кенг тарқалган. «Педагогик технология» сўз бирлиги — бу инглизча «an educational technology» — «таълим технологияси» иборасининг аниқ бўлмаган таржимасидир. «Педагогик



технология» тушунчаси охириги пайтларда ўқитиш назариясида янада кенгроқ тарқалиб келмоқда. Айнан ана шу мазмунда «технология» термини ва унинг «ўқитиш технологияси», «таълим технологияси», «таълимда технология» шакллари педагогик адабиётларда фойдаланила бошланди ва муалифлар таълим-технологик жараёнининг тузилиши ва ташкил этувчиларини қандай тасаввур этишларига қараб кўплаб ифодаларга эга бўлдилар (уч юздан ортиқ). «Педагогик технология» термини биринчи бор педагогика бўйича ишларда — XX асрнинг 20-йилларида тилга олинган. Ҳозирги кунда педагогик технология тушунчасини турлича ифодалаш мумкин:

1. Технология — бу бирон-бир ишда, маҳоратда, санъатда қўлланиладиган услублар тўпламидир (талқинли луғат).

2. Педагогик технология — бу ўқув жараёнини амалга ошириш мазмунли техникасидир (В.П. Беспалько).

3. Педагогик технология — бу ўқитишда режалаштирилган натижаларга эришиш жараёнини тасвирлашдир (И.П. Волков). 4. Педагогик технология — бу ўқитиш, тарбиявий воситалар, шакллари, методлари, усул, услубларининг махсус тўплами ва тузилишини белгиловчи психологик-педагогик кўрсатмалар йиғиндиси, у педагогик жараённинг ташкилий методик қуроли демақдир (Б.Т. Лихачев).

5. Педагогик технология — бу таълим шакллари оптималлаштириш масаласини қўювчи, техник ва инсоний имкониятларни ва уларнинг ўзаро муносабатларини ҳисобга олиб ўқитиш ва билимларни ўзлаштириш жараёнини яратиш, қўллаш ва белгилашга системали ёндашидир (ЮНЕСКО).

6. Технология — бу санъат, маҳорат, моҳирлик, ишлаб чиқиш методлари тўплами, ҳолатини ўзгартиришдир (В.М. Шепель).

7. Ўқитиш технологияси — бу ўқувчилар ва ўқитувчилар учун сўзсиз қулай шароитлар яратиш бериш билан ўқув жараёнини лойиҳалаштириш, ташкил этиш ва олиб бориш бўйича ҳар томонлама ўйлаб чиқилган ҳамкорликдаги педагогик фаолият моделидир (В.М. Монахов).

8. Педагогик технология — бу педагогикада фикрлашнинг системали усулидир (Т. Сакамото).

9. Педагогик технология — ўқув жараёнининг ташкилий шакли, методлари,

мазмунини ўзгартирувчи унинг ривожланиш янги системасидир (Э. Бистереки ва Ж. Целлер).

10. Педагогик технология педагогик мақсадларга эришиш учун фойдаланиладиган ҳамма шахсий, инструментал ва методологик воситаларни системали тўплами ва ишлатилиш тартибининг билдиради (М.В. Кларин).

11. Педагогик технология — бу таълим мақсадига эришишга қаратилган ўқитувчи ва ўқувчининг фаолиятини системали, коцептуал, қоидали, объективлаштирилган, инвариант тасвирлашдир (Ф.А. Фрадкин).

12. Педагогик технология билимларни эгаллашда режалаштириш, бошқариш ва таъминлашни таҳлил қилиш учун фаолиятни ташкил этиш усулини, одамлар, ғоялар, воситаларни ўз ичига олувчи комплекс интеграл жараён демақдир (Педагогик коммуникациялар ва технологиялар бўйича АҚШ ассоциацияси). Барча халқларда ҳамма вақт яхши тайёрланган мутахассислар, ўз ишининг усталари ҳурмат қилинган, маҳорат билан моҳирона ўқитиш ҳам юксак баҳоланган. Педагогика фани тарихида ўқитиш ва кадрлар тайёрлашнинг янада мукамал методларини ва усулларини излаш доимий давом этиб келган. Ўқитиш — бу унинг жамият тараққиёти учун самараси педагогнинг фаолияти яқунланиши билан дархол кўринмаса ҳам ҳар қандай бошқа фаолият каби ишлаб чиқариш фаолиятидир. Жамият тарихида иқтисодий даврлар фақатгина нималар ишлаб чиқарилиши, ким томонидан қанча ишлаб чиқарилиши, меҳнатнинг қайси воситалари билан ишлаб чиқарилиши билангина фарқ қилмайди. Ана шу нуқтаи назардан биз ижтимоий тарихда мавжуд бўлган «педагогик даврларни» кўриб чиқамиз:

I. Индивидуал педагог, қўл билан ишлайдиган педагогнинг педагогик фаолияти даври (қадимги даврлардан бошлаб XVII асргача);

II. Ўқув китоби даври (XVII асрдан ҳозирги давргача);

III. Аудиовизуал воситалар даври (XX асрнинг 50-йиллари).

IV. Ўқитишни бошқаришни автоматлаштириш оддий воситалари даври (XX асрнинг 70-йиллари).

V. Замонавий ҳисоблаш машиналари асосида таълимни бошқаришни автоматлаштиришда адаптив воситалар даври (XX аср охири компьютерни ўқитиш). «Педагогик технология» тушунчаси учта аспектлар билан тақдим этилиши мумкин:

1) Илмий педагогик технология — ўқитишнинг мақсади, мазмуни ва методларини ўрганувчи ва ишлаб чиқувчи, педагогик жараёнларни лойиҳалаштирувчи педагогик фаннинг бир қисмидир.

2) процессуал-таърифий: жараённи тасвирлаш ўқитишнинг кўзда тутилган натижаларига эришиш учун воситалар ва мақсад, методлар тўплами.

3) процессуал-амалий: технологик жараённи амалга оширилиши, ҳамма шахсий, инструментал ва методологик педагогик воситаларнинг ишга солиниши. Шундай қилиб, педагогик технология ўқитишнинг энг самарали йўлларини изловчи фан сифатида ҳам, ўқитишда қўлланиладиган усуллар, принциплар ва бошқарувлар системаси сифатида ҳам, ўқитиш ҳақиқий жараёни сифатида ҳам иштирок этади.

### **Тарих дарсларида ўқувчига ёндошиш бўйича технологиялар**

1) Авторитар технологиялар, бунда педагог ўқув-тарбиявий жараённинг якка

субъекти ҳисобланади, ўқувчи эса фақатгина «объект», бирор-бир қисмдек бўлади. Улар мактаб ҳаётини қатъий ташкил этилиши, ўқувчиларнинг ташаббуси ва мустақиллигига йўл қўймаслик, талаб ва мажбурлаш қўлланилиши билан ажралиб туради.

2) Дидактоцентрик технологиялар ҳам бола шахсига эътиборсизлик юқори

даражаси билан ажралиб туради, уларда ҳам ўқитувчи ва ўқувчи ўртасида субъект-объектлик муносабатларлар ҳукм суради, ўқитиш таълимдан устун қўйилади ва шахсни шакллантириш энг асосий омиллари дидактик воситалар ҳисобланади.

3) Шахсга йўналтирилган технологиялар бутун мактаб, ўрта махсус таълим

тизими марказига бола шахсини, унинг ривожланиши учун қулай, келишмовчилик-ларсиз ва хавфсиз шароитларни таъминлаш, унинг табиий имкониятларини амалга оширишни қўяди. Бу технологияда бола шахси фақатгина объект эмас, балки муҳим субъект ҳамдир: у бирор-бир ноаниқ мақсадга эришиш воситаси эмас, балки таълим тизими мақсади ҳисобланади (авторитар ва дидактоцентрик технологияларида бўлганидек). Бундай технологияларни яна антропоцентрик деб ҳам атайдилар. Шундай қилиб, шахсга-йўналтирилган технологиялар антропоцентриклиги, инсонпарварлиги ва психотерапевтик йўналганлиги билан ифодаланади ва боланинг ҳар томонлама, эркин ва ижодий ривожланиши мақсад қилиб олади.

Шахсга-йўналтирилган технологиялар доирасида инсонпарварлик шахсий технологиялар, ҳамкорлик технологиялари ва эркин тарбиялаш технологиялари мустақил йўналганлиги билан ажралиб туради.

4) Инсонпарварлик-шахсий технологиялар биринчи навбатда ўзининг инсонпарварлик моҳияти, шахсни қўллашга психотерапевтик йўналганлиги, унга ёрдам кўрсатиши билан ажралиб туради. Улар болага ҳар томонлама ҳурмат ва муҳаббатни, мажбурлашни рад этиб унинг ижодий қудратига ишончни тарғиб қилади.

5) Ҳамкорлик технологияси, ўқитувчи ва бола ўртасидаги объект-субъектив

муносабатларда демократиклик, тенгликни, ҳамкорликни амалга оширади. Ўқитувчи ва ўқувчи биргаликда мақсад, мазмунни ишлаб чиқадилар, ҳамкорлик ва биргаликда ижод ҳолатида бўлиб баҳо берадилар.

## 6) Эркин тарбия технологиялар боланинг ҳаётий фаолияти доирасида кўпми

озми танлаши ва мустақиллиги эркинлиги беришга эътиборни қаратади. Танловни амалга ошириб бола натижаларга ташқи таъсир остида эмас, балки ички туйғулари орқали боради, у субъект нуқтаи назарини энг яхши услуб билан амалга оширади.

2. Танқидий фикрлашнинг фаол методлари. Танқидий фикрлашни ўстиришга хизмат қиладиган методлар «Демократик таълим учун» консорциуми томонидан амалга ошириладиган «Танқидий фикрлаш учун ўқиш ва ёзиш» лойиҳаси доирасида ишлаб чиқилган. Танқидий фикрлашнинг фаол методларини ишлаб чиқишда қуйидаги асослардан келиб чиқадилар: Танқидий фикрлаш нима? Фикрлаш — ўқиш, ёзиш, сўзлаш ва эшитишга ўхшаш жараён. У фаол, мувофиқлаштирувчи шундай жараёнки, ўзида бирор ҳақиқат тўғрисидаги фикрларни қамраб олади. Фикрлаш контекstdан ташқарида ҳосил қилинадиган кўникма эмас.

Танқидий фикрлаш таълимий дастур ёки кундалик ҳаётнинг умумий контекstdан йироқлашган шароитда ўрганилиши лозим бўлган ҳодиса ҳам эмас. Браун (1989) таъкидлайдики, вазифа ва реал ҳаёт мақсадларидан ажратилган ўқув кўникмалари таълим олувчиларга объектив тестларни яхши топшириш имкониятини бериши мумкин, лекин улар бу кўникмаларни янги вазиятларда қўллай олмайдилар. Рихер таъбири бўйича ўрганиш ва фикрлашнинг таърифи когнитив психология, фалсафа ва мультимедиа маданияти таълими соҳасидаги тадқиқотлар натижаларига асосланади.

**Фойдаланилган адабиётлар руйхати**

1. Ўзбекистон тарихини ўқитиш ва ўрганишнинг ягона концепцияси.-Т.: 1996.
2. Ўзбекистон тарихи умумтаълим ва янги турдаги мактабларнинг V-XI синфлари учун дастур Т. 1997.
3. Ўзбекистон тарихи фани дастури. Университетлар ва педагогика олий ўқув юртларининг тарих факультетлари учун. Т. 1996
4. Ҳуқуқ асослари.Т., 1995
5. 5-синф «Жаҳон тарихидан ҳикоялар» И.Жўраев, М.Лафасов, К. Норматов. Т.2000.
6. 6-синф Ўзбекистон тарихи, А.С.Саъдуллаев, Е.А.Костецкий, Н.К.Норқулов. Шарқ. 1999.
7. А.Муҳаммаджонов. 7-синф Ўзбекистон тарихи. Тошкент. Ўқитувчи 2000
8. Т.Салимов, С.Маҳкамов 7-синф Жаҳон тарихи. «Шарқ»-Т.-1999й.
9. М.Лафасов. 9-синф Жаҳон тарихи ўқув қўлланмаси.-Т.: А.Қодирий номидаги мероси.-Т.: 1999.
10. У.Жўраев. 7-синф Жаҳон тарихидан ўқитувчилар учун методик қўлланма.-Т.: 2000.
11. Н.Норқулов, У.Жўраев . 8-синф Ўзбекистон тарихи. Шарқ. Т. 2000.
12. Ж.Рахимов. 9-синф Ўзбекистон тарихи. Тошкент. 2000.

# O'zbek tili o'qitish metodikasi fanining maqsadi, vazifalari, boshqa fanlar bilan aloqasi

**Umarov Baxrom Norboyevich**

Termiz davlat universiteti xuzuridagi halq ta'limi xodimlarini qayta tayorlash va ularning malakasini oshirish xududiy markazi,

**Bozorova Zarina Xolmurotovna**

Denov tumani 67-son sanatoriy turidagi ixtisoslashtirilgan davlat internati,

**Raxmonova Dilorom Jumayevna**

Qumqo'rg'on tumani 10-maktabining ona tili fani o'qituvchisi

**Mustafaqulova Komila Tohsपो'latovna**

Qumqo'rg'on tumani 10-maktabining ona tili fani o'qituvchisi

Mustaqillik sharofati bilan ta'lim sohasida ham ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. Mustaqillikning birinchi kunlaridanoq yosh avlod tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratildi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Davlat ta'lim standartlari"ning joriy qilinishi ushbu jarayonlardagi eng muhim bosqich sifatida xarakterlanadi. Bu hujjatlarda ona tili ta'limi oldiga ham qator talablar qo'yildi. Shu asosda ona tili dastur va darsliklari ham yangilandi. Yangilangan ona tili darsliklarining ikki avlodi nashr qilindi va o'qitishga joriy etildi. Ona tili o'qitishga bo'lgan qarashlar, talablar o'zgardi. Darsliklar ana shu talablar asosida tuzildi.

Ona tili o'qitish metodikasi pedagogik fan sifatida boy tajriba to'plagan bo'lsa-da, bu fanning o'qitilishi bilan bog'liq bir qator muammolar ham yuzaga keldi. Buning sababi shundaki, ta'lim jarayoniga bir qator zamonaviy texnologiyalar kirib keldi va kirib kelmoqda, umumiy o'rta ta'lim maktablarining ona tili darsliklari yangilandi, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darsliklar yaratildi. Bular bilan bog'liq qarashlar va tahlillar, uslubiy ko'rsatmalar o'zbek tili o'qitish metodikasining o'rganish obyektiga aylanishi kerak. Shu ma'noda bu fanning mazmunini quydagicha belgilash mumkin: ona tili ta'limining izchil tizimini ishlab chiqish, ona tili darslarini tashkil etishga oid metodik tavsiyalarni tanlash va amaliyotga joriy etish, shu bilan birga metodika sohasining zamonaviy pedagogik texnologiyalar, til o'rgatishning interfaol metodlarini o'zida aks ettirgan ilmiy asoslarini ishlab chiqishdir. Bu fan egallangan bilimlarni pedagogik amalyotga joriy etish, ilg'or pedagogik texnologiyadan unumli foydalanishga yo'naltirilgan. O'zbek tili o'qitish metodikasi ijodiy tafakkur sohibini shakllantirishning didaktik asoslarini o'rganadi. Ona tili o'qitish metodikasi fani yosh avlodga ona tilidan nimani?, qancha?, qanday? o'rgatish kerak degan savollarga javob beradi. Til o'qitish metodikasini o'rganish turli ta'lim bosqichlariga mos, qulay metodlarni izlash, tanlash, amaliyotda qo'llay bilishdir. O'zbek tili o'qitish metodikasining asosiy maqsadi til imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli va unumli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy — ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, o'quvchilarda milliy istiqloq g'oyasini shakllantirish va talaba shaxsini ma'naviy boyitishdan iborat. Til o'qitish metodikasining asosiy vazifasi talabalarni erkin, ijodiy, mustaqil fikrlarini og'zaki va yozma shaklda, adabiy til meyorlari asosida to'g'ri ifodalay oladigan, bir ma'noni turli holatlarda berish ko'nikmasi shakllangan yetuk murabbiylarni tarbiyalab yetkazishdir.

O'zbek tili o'qitish metodikasi fani o'zining nazariy asoslariga va ilmiy tadqiqot metodlariga ega. Bular quyidagilar:

**1.Kuzatish.** Tilshunos va metodist olimlar ilmiy anjumanlarda, vaqtli matbuotlarda, berib borilayotgan uslubiy maqolalarni, pedagogik o'qishlarda o'qilayotgan ma'ruzalarni o'qib va eshitib, kuzatib boradilar, zamonaviy dars namunalarni kuzatib, ulardan tegishli xulosalar chiqaradilar. Bu usul orqali ona tili o'qitish bilan bog'liq muammolar o'rgatiladi, yangicha qarashlar va metodlar aniqlanadi.

**2.Tajriba o'tkazish.** Metodist — olimlar o'z ilmiy tadqiqotlari yuzasidan erishilgan natijalar haqida ilmiy anjumanlarda o'rtoqlashadilar, o'zlari ilgari surayotgan, qo'llamoqchi bo'lgan metodlarini asosli va ishonchli mezonlar asosida ma'lum maktab yoki akademik litseylarda tajribadan o'tkazadilar. Natijalarni tahlil qiladilar.

Bu usul tavsiya qilinayotgan ilmiy va uslubiy farazlarning ishonchliligini, asosli ekanligini isbotlashga zamin yaratadi.

**3.Test o'tkazish.** Bu usul orqali o'quvchilarning nazariy bilimlari, ko'nikma va malakalari o'rganiladi. Test savollari o'tkazish o'quvchi va talabalarning bilimi, egallagan amaliy ko'nikmalari haqida umumlashgan xulosalar chiqarishga imkon yaratadi.

**4.Anketa va savol varaqalari tarqatish.** Bu usul orqali o'qituvchi va o'quvchilarning fanga bo'lgan munosabati, qiziqishlari va istaklari o'rganiladi.

**5.Metodik merosni o'rgatish.** Ona tilini o'qitish tarixi qadimgi davrlarga borib taqalsa-da, uni o'qitish metodikasi uzoq tarixga ega emas.

O'tmishda yashab ijod etgan Al-Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Zamaxshariy, Navoiy kabi ijodkorlar asarlarida ta'lim-tarbiya bilan, o'qitish bilan bog'liq fikrlar mavjud bo'lsa-da, aynan ona tilini qay usulda o'qitish bilan bog'liq fikrlar uchramaydi. Al-Xorazmiyning "Sezish orqali bilish bu qisman bilish bo'lsa, mantiqiy bilish bu haqiqatdir", Abu Nasr Forobiyning "Bilim, ma'rifat, yaxshi axloq bilan bilimdon, ma'rifatli, yetuk, mukammal inson yetishadi. Buning uchun ta'lim — tarbiya o'qituvchi tomonidan to'g'ri tashkil etilishi, boshqarilishi va ma'lum maqsadlarga yo'naltirilishi lozim" degan fikrlari o'zbek tili o'qitish metodikasida ham bosh mezon vazifasini o'taydi.

XX asr boshlariga kelib an'anaviy o'qitish usullari yoniga Yevropacha o'qitish usullari ham kelib qo'shildi. Mahalliy ziyolilardan Fitrat, Munavvar qori, Hamza, A.Avloniy, Qori Niyozov, Qayum Ramazon, Murod Shams, Majid Qodiriy kabilar darslik va qo'llanmalar yaratishda faol ishtirok etdilar. 1940-yillarda S.A.Fvesaloniskiyning "Ona tili o'qitish metodikasi" qo'llanmasi bosilib chiqdi. Qo'llanmada nutq o'stirish va insho masalalariga keng o'rin berilgan, morfologiya va sintaksis o'qitish metodikasiga alohida e'tibor berilmagan. 40—yillardan boshlab o'zbek olimlari til o'qitish muammolari bilan bog'liq tadqiqot ishlari olib bora boshladilar.

1944 yilda M.Shams "Orfografiya o'qitish metodikasi", K.Xayrullayev "Tipik orfografik xatolar va ularni bartaraf etish" mavzusidagi tadqiqotlarni amalga oshirishdi. M.Shams 1950-yilda "O'zbek tili o'qitish metodikasi" qo'llanmasini nashr ettirdi. 1952- yilda esa "O'zbek tili o'qitish metodikasi"ning 1-qismi F.Kamol tahriri ostida nashrdan chiqdi. 1960-yilda H.Rustamovning "Sintaksis va punktuatsiya o'qitish metodikasi", 1963-yilda N.Abdurahmonovning "O'zbek tili o'qitish metodikasi" kitoblari nashr ettirildi. 1975-yilga kelib esa ancha mukammal darslik Y.G'ulomov, I.Rasulov, H.Rustamov, B.Mirzaahmedovlar tomonidan yaratildi. Bu darslik ham "O'zbek tili o'qitish metodikasi" deb nomlanadi. Ushbu darslik hozirgi davrgacha amalda qo'llanib kelindi. 1960-80-yillar davomida metodika bo'yicha ishlar ko'lamli ko'paydi. Hozirgi davrda ham ona tili o'qitish metodikasi bo'yicha ilmiy — tadqiqotlar keng olib borilyapti.

O'zbek tili o'qitish metodikasi birinchi navbatda falsafa va umumiy tilshunoslik bilan, tilshunoslikning nazariy asoslari bilan chambarchas bog'liq.Maktablarda o'qitiladigan ona tili predmetining ilmiy asosini va mazmunini, dastavval til haqidagi fan belgilab beradi. Ona tili o'qitishning to'g'ri tashkil etilishi va samarali bo'lishi til to'g'risidagi lingivistik xulosalarning ilmiy va aniq bo'lishiga bog'liq. Ona tili o'qitish metodikasini va uning taraqqiyotini tilshunoslik fanisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Ona tili o'qitish metodikasi pedagogika va psixologiya fanlari bilan ham bog'liq holda ish olib boradi. Pedagogika ta'lim — tarbiya prinsplarini belgilab beruvchi fandır. Ona tili darslarida ham ta'lim prinsplari qo'llanadi.

Pedagogika fanining didaktika qismi ona tili o'qitish metodikasining nazariy asosi hisoblanadi, Ona tili o'qitish metodikasi didaktikasining hamma prinsplariga tayanadi. O'qituvchi o'z o'quvchilarining psixologik qobiliyatlarini o'rganishi, ona tili materiallarini tushuntirishda ularni hisobga olishi zarur.

O'qituvchi o'z faniga nisbatan o'quvchilarda qiziqish uyg'ota olishi, ularning diqqatini jalb eta olishi, shu materialni esda saqlab qolish yo'llarini qo'llashi lozim. Bu ishlarning barchasi ona tili o'qitish metodikasining psixologiya bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

O'zbek tili o'qitish mazmuni

Ta'lim mazmuni davlat va jamiyat talablariga ko'ra, pedagogik texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlari asosida belgilanadi, shakllanadi. Ta'lim mazmunini shakllantirish zamonaviy pedagogikada 4 ta muhim tarkibiy qismlar hisobiga amalga oshiriladi.

1. Talabalar egallashi zarur bo'lgan bilimlar tizimi (til fanlari, tushunchalar, qoidalar va ta'riflar tizimi)

2. Tanlangan ilmiy — nazariy bilimlarga muvofiq keladigan amaliy ko'nikma va malakalar tizimi

3. Talabalarni ijodiy faoliyat usullariga o'rgatish. Faoliyat qayta xotirlash, qisman ijodiy va ilmiy — ijodiy darajada bo'lishi mumkin

4. Talaba va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimi ona tili o'qitish mazmuni fonetika, leksikologiya, grammatika, uslubiyat, to'g'ri talaffuz, to'g'ri yozish, so'z tanlash va gap tuzish, ijodiy fikrlash, fikrni to'g'ri, aniq ifodalash, ifodali o'qish, matn ustida ishlash va matn yaratish faoliyatlarini qamrab oladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Ona tili. Adabiyot. O'zbek tili (ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun). Toshkent. "Sharq" nashriyot—matbaa konserni. 1999-yil, 1-maxsus son.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi Qonuni". 1997B. To'xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyadova. "O'zbek tili o'qitish metodikasi" Toshkent. "Yangi asr avlodi" nashriyoti. 2006-y.
3. A. G'ulomov, M. Qodirov "Ona tili o'qitish metodikasi" Toshkent. "Universitet" nashriyoti. 2001-y.
4. "O'zbek tilining asosiy imlo qoydalari" Toshkent. "O'qituvchi" nashriyoti 1995-y.

## Меҳнат таълимидан амалий машғулотларни ўтказиш методикаси

**Мамарасулова Ўғилшод Ғўччиевна**

Шеробод тумани 5-умумий ўрта таълим мактаби ўқитувчиси,

**Алланазарова Хадича Қурбоновна**

Қизириқ тумани 6-умумий ўрта таълим мактаби ўқитувчиси,

**Назарова Гуландон Раҳимназаровна**

Денов тумани 22-умумий ўрта таълим мактаби ўқитувчиси

Меҳнат таълимидан амалий машғулотларни ўтказиш методикаси. Меҳнат таълими устахоналари ҳар бир ўрта ва бошланғич мактабда ташкил этилади. Уларга қўйидаги вазифалар юклатилади: — тасдиқланган дастур асосида 1-9 синф ўқувчиларининг меҳнат таълими дарсларини ўтказиш. — меҳнат таълими бўйича факультатив машғулотлар ўтказиш. — техник, бадий-амалий тўғараклар ва ўқувчиларнинг қизиқишлари бўйича клуб ишлари. — 8-9 синфларнинг касб танлаш машғулотларини ўтказиш.

Умумий таълим мактабларида қўйидаги таълим устахоналари ташкил қилинади: — 1-4 синфлар ўқувчиларининг меҳнат таълими дарсларини ўтиш учун ўқув меҳнати хонаси (қоғоз, картон, газлама, платилин дан буюмлар тайёрлаш ўргатиади). — 5-9 синфларда меҳнат таълими йўналишлари бўйича устахоналар ташкил этилади. махсус умумий таълим мактабларида ва мактаб интернатларда мазкур мактаблар тўғрисидаги қоидага мувофиқ равишда бошқа профилдаги таълим устахоналари ташкил қилиниши мумкин.

Таълим устахоналари станоклар, асбаб ускуналар билан жиҳозланади, шунингдек кўрғазмали ўқув қуроллари ўқитишнинг техника воситалар, техник ва технологик ҳужжатлар билан таъминланади.

Таълим устахоналарида ўқувчиларнинг шахсий ва коллектив равишда ишлаш жойлари, ўқитувчининг иш жойи бўлиши керак. Устахонада ишчи ўрни 5-9 синф ўқувчиларининг гуруҳларга бўлинишини ҳисобга олган ҳолда белгиланади. Ўқитувчининг иш ўрни тахминан 3600×2000×200 мм баландлик ва кенгликда бўлиши керак.

Ўқув устахонасида ҳавфсизлик техникаси қоидалари, материалшунослик, касб танлаш бўйича стентлар, плакатлар, схемалар бўлиши керак. Устахонада ўқувчилар тайёрлаган буюмлардан доимий кўрғазмалар ташкил қилинади. Устахона деворларини, асбоб ускуналарни бўяшда техника эстетикаси ва ҳавфсизлик техникаси қоидаларига риоя қилиш, ҳавфли участкалар тўсиқ билан ўралиши, ҳавфсизлик сигнали ва белгилар ўрнатилиши керак.

Медицина кўригидан ўтган ва жисмоний меҳнатга лаёқати бўлган болаларга таълим устахоналарида ишлашга руҳсат этилади. Ўқувчилар устахонада барча ишларни махсус кийимда бажарадилар. Устахоналарни машғулотлар ўтказиш учун яроқлилиги тўғрисидаги хулова мактабни янги ўқув йилига тайёрлигини текширувчи комиссия томонидан чиқарилади.

Мактаб маъмурияти устахонани қайти жиҳозлаш, уни янги жиҳозлар, асбоб ускуналар, мосламалар билан бойитиб борилиши, уларга техник хизмат кўрсатилиши тадбирларини кўриб боради. Мактаб буйруғи билан устахона мудири белгиланади.

Ўқув устахоналарига бўлган талаблар. Ўқув хоналарининг бинолари, улардаги жиҳозлар ва механизмларнинг жойлаштирилиши санитария нормаларига мос келиши керак. Ўқув устахоналари мактаб биносининг 1-қаватига ва ён қисмига жойлаштирилиши мумкин.

Мактаб биносида жойлаштирилган ўқув устахоналари ёндаги ва иккинчи қаватдаги хоналарига овоз ўтказмайдиган қопламалар билан тўсилган бўлиши керак. Ўқув устахоналари ёруқ, иссиқ ва қуруқ бўлиши керак. Ер тўла ва ярим ертўлаларда устахоналар ташкил қилиш таъқиқланади. Ўқув устахоналарининг сахни нормада кўрсатилганига мос келиши керак. Агар ёғочга ишлов бериш

ва металлга ишлов бериш устахоналари алоҳида-алоҳида бўлса ҳар бир устахонанинг сахни 70 м<sup>2</sup> гача бўлиши керак.

Комбинацияланган устахонанинг сахни эса 90 м<sup>2</sup> гача бўлиши керак. Асбобнинг сахни 15-20 м<sup>2</sup> бўлади. Совуқ вақтларда намлик ва ҳарорат нормал бўлиши керак. Металларга ишлов бериш устахонасида 15-160 С, ёғочга ишлов бериш устахонасида 14-150 С ҳарорат бўлиши керак. Ўқув устахоналарини иситиш учун чўян печлардан ва электр иситкичлардан фойдаланиш таъқиқланади. Станокларнинг корпуслари ерга уланиши керак. Агар устахонанинг поли ёғочли бўлмаса электр асбоблар ва станокларнинг олдига панжарали таглик қўйиши керак.

Устахонада 20 % ўқувчи хисобига қўл ювадиган, совун, сочиқ, бўлиши керак. Устахонада тоза ичимлик суви бўлиши керак. Ўқув устахонасида биринчи тиббий ёрдам бериш учун дори дармонлар боғлаш материаллари билан таъминланган аптечка бўлиши ҳамда унинг ёнига яқин орадаги тиббий муассасанинг телефон номери ва манзилгоҳи ёзиб қўйилиши керак. Ўқувчиларнинг уй кийимларини ечиб иш кийимларига алмаштириш учун кийим шкафи бўлиши керак.

Устахонани ёритиш ва шамоллатишга бўлган талаблар. 23 Устахонанинг табиий ва сунъий ёруғлиги нормада кўрсатилган талабларга мос бўлиши керак. — Ёғоч ва металл ишлаш устахонасида 300вт-люменисцент ёки 150вт-чўғланма лампа билан; — Тикувчилик устахонасида 400вт-люменисцент ёки 200втч чўғланма лампа билан ёритилиши керак. Ёруғлик тушадиган деразаларни тўсмаслик керак.

Дераза ойналари бир йилда камида икки марта артиб тозаланиши керак. Дераза ойналарини ювишга (қайси қаватда бўлишидан қатъий назар) хатто юқори синф ўқувчиларини жалб этиш ман этилади. Махаллий ёриткичлар 45 ва ундан ошмаган кучланиш билан таъминланиши керак. Ёритиш лампалари камида бир ойда икки марта артиб турилиши керак. Умумий ёритиш лампаси полдан 3 м баландликда бўлиши керак. Ўқув устахоналари вентиляция ва иситиш жихозлари билан таъминланган бўлиши керак. Вентиляция табиий, механик ёки аралаш бўлиб ҳаво алмашишини таъминлаши керак.

